

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI” mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

QO'LYOZMA DOSTONLAR VA BAXSHICHILIK AN'ANASI

San'atjon SARIYEV

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15290678>

Ma'lumki, XVIII-XIX asr baxshilarining aksariyati savodli bo'lgani holda ayrimlari to'g'ridan-to'g'ri eshitish (ya'ni, sulh) orqali dostonlarni o'rganib keyin doston kuylashga o'tganlar. Bu jarayonda yosh baxshiga xalqona va baxshiyona uslubda yaratilgan Maxtimquli she'rlari bilan aytiladigan qo'shiqlar o'rgatilgan. Bu bilan birinchidan, baxshi-hofizning musiqaviy tajribasi oshirilgan bo'lsa, ikkinchidan, xalqning talabi qondirilgan. CHunki, o'zbek, turkman va qoraqalpoq xalqlarining to'yu-tomoshalarda albatta dastlab Maxtimqulidan qo'shiqlar talab qilinadi. Hattoki, ayrim hollarda, Maxtimqulidan aytilmasa baxshi-hofizga jiddiyroq tanbeh berishgan.

Qo'lyozma nusxalar o'sha davrdagi kotib va hattotlar tomonidan, shuningdek, el orasidagi savodli kishilar tomonidan bir necha bor qayta ko'chirib tarqatilgan. XIX asrning oxirlarida toshbosma (litografik) usulda kitob chop qilish paydo bo'lishi bilan xalq talab qilgan barcha asarlar bilan birgalikda, o'zbek, turkman, qoraqalpoq, qozoq, tojik, ozarbayjon kabi 22 dan ortiq turkiy va turkiy bo'lmagan xalqlarning betakror va sevimli eposiga aylangan “Go'ro'g'li” dostonlarining ham toshbosma nusxalari chop qilindi.

Bu qo'lyozma va toshbosmalar dostonchi-baxshilar uchun juda qo'l keldi. CHunki, kitobdagidan boshqasini aytish ilgarigi baxshilar uchun ayb sanalgan. 1863-yilda Xorazmga kelgan Venger olimi H.Vamberi ham ko'proq doston qo'lyozmalarini yig'ishga e'tibor qaratgan. Uning ta'kidlashicha, Xorazm baxshilarida “Baxshi kitobi” deb ataluvchi maxsus qo'lyozmalar bo'lib, ular “...o'rganuvchi shogird-baxshilarning yonida olib yuriladigan kichik kitobchadir” [1.34]. Demak, o'sha paytlardayoq yosh baxshilar dostonlarni yoki ulardan parchalarni ana shunday qo'lyozmalar orqali o'zlashtirib, keyinchalik ularni og'zaki ravishda kuylashga o'tganlar.

Baxshilarning kitobiy doston kuylaganliklariga 1908-yilda Xorazmga kelgan sharqshunos A.Samoylovich ham e'tiborini qaratadi. Bu haqda u: “Xivalik baxshining o'zi dutor chalib, kitobiy dostonni ijro etayotganida uning yonidagi ikki sozanda bulamon chalishib, unga jo'r bo'lib turishdi” [2.22] - deb yozadi.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Darhaqiqat, Xorazm baxshilarining kitob vositasida doston aytishi o'ziga xos an'ana hisoblangan. Qoraqalpoq folklorshunosi Q.Ayimbetovning yozishicha, Xiva xoni Suyav baxshini chaqirib “Go'ro'g'li” dostonini ayttirgan va o'zi dostonning qo'lyozmasiga qarab o'tirgan. Baxshi hatto bir so'zda ham yanglishmagan [3.132]. Demak, Xorazm baxshilari so'nggi davrlarda dostonlarni, asosan, yozma matnlar orqali o'rganib, og'zaki ijroga o'tganlar. Keksa baxshilarning eslashlaricha, ilgari davrlarda dostonlardagi she'riy parchalarni tashlab ketish yoki unga qo'shimcha qo'shish ilgari ayb sanalgan.

Samarqand viloyatining Qorakisa qishlog'ida tug'ilib ijod qilgan dostonchi-qissaxon (baxshi), O'zbekiston xalq baxshisi Rahmatulla YUsuf o'g'li shunday eslaydi: “Ma'lumki, “Go'ro'g'libekning Avazxonni olib kelgani” degan doston avval Qozon va Toshkentda savdogarlar tomonidan nashr qilinib, tezlik bilan butun o'zbeklar elatiga tarqalgan edi. Mazkur kitobchaning Toshkent bosmasi bo'lgan “Go'ro'g'li bo tasvir” bizning ovulga nihoyat, 1927 yilda etib o'sha vaqtdagi hamma dostonchi-baxshilarning, hatto, “arab harfida yozilgan kitobning hammasi rost”, deb tushungan ulug' shoir Ergash Jumanbulbul o'g'lining ham zamiriga singib, mazkur dostonni avvaldan har birlari turlicha aytib yurganlari ham yo'qolib, kitobnikidan aytmoq kerak, degan fikr paydo bo'lgan” SHunday qilib, barcha baxshilarga yoyilib, keyinchalik o'sha nashrdan chiqqaniga o'xshagan qilib aytmoq odat bo'lib ketgan. Hozir, masalan, bir kichikroq baxshidan: “Mazkur dostonning boshqa xili ham ilgari aytilarmidi?” deb so'ralsa, “Yo'q”, deb javob beradi [4.8].

Haqiqatan ham, H.Vamberi, A.Samoylovich, Q.Ayimbetovlar va Rahmatulla YUsuf o'g'lining bergan ma'lumotlari yuqoridagi fikrlarimizni nechog'lik haqiqatga yaqin ekanligini bildiradi. Rahmatulla YUsuf o'g'li o'zi bilgan baxshilarning nomlari, ularning qaerdan ekanliklari haqida ma'lumotlar berar ekan, qissaxon-baxshilar haqida ham to'xtalib: “Ammo Toshniyoz baxshi kitobdan yodlab o'quvchi baxshi edi” [5.142], deydi. SHuningdek, “Go'ro'g'li” dostonlarining qo'lyozma va toshbosma nusxalarining vujudga kelishi bilan ko'plab savodli kishilar ham bu nusxalar targ'ibotida katta rol o'ynaganlar.

Aytish o'rinliki, ushbu kitobiy qo'lyozma va toshbosma nusxalar “Go'ro'g'li” dostonlarining asl matnlariga va syujetiga baxshilar tomonidan matn va syujetlar qo'shilishiga chek qo'ygan. Masalan, “Jassoq baxshi Sangzor tumaniga borganida “Kiyik va toshbaqa” degan dostonni “Go'ro'g'li” dostonlari hisobidan aytgan, degan gap yuradi” [4.8]. “Go'ro'g'li” dostonlarining qo'lyozma va toshbosma nusxalarining paydo bo'lishi folklorshunoslik uchun katta hodisa bo'lishi bilan birga, baxshi-

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O’RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

shoirilar uchun qonun bo‘lib xizmat qilgan, desak yanglishmagan bo‘lamiz. Bu nusxalarning vujudga kelishi “Go‘ro‘g‘li” eposidek xalqimizning betakror ma’naviy merosini asl va sof holicha, o‘z qimmatini yo‘qotmagan holda avlodlarga etkazishda katta rol o‘ynagan.

El orasida, shuningdek, baxshilar va savodli kishilar orasida o‘zlari sevgan ijodkorlar va asarlarning kitobiy nusxalarini tarqilishi bejizga emas, albatta. Xalq dostonlari va mumtoz asarlar qo‘lyozma va toshbosma nusxalarining tarqalishi xalqimizning shu ma’naviy merosimizga bo‘lgan ehtiyoji natijasida ro‘y berdi.

Adabiyotlar:

1. Vambery H. Chagatausche Sprachsteidian. – Leipzig, 1867 -p. 33-34.
2. Самойлович А.Н. Краткий отчет о поездке в Ташкент и Бухару и в Хивинское ханства в 1908 году // Известия русского комитета для изучения Средней и Восточной Азии в историческом, лингвистическом и этнографическом отношениях. - СПб., 1909, №9. – С.21-22.
3. Айымбетов Қ. Халық даналығы. - Нөкис, “Қарақалпақстан”, 1988, 132-бет.
4. Мирзаев Т. Достонлар зубдаси / Гўрўғлининг туғилиши. Тошкент. “Ёзувчи” – 1996. 8-бет.
5. Собиров О. Махтимкули ва ўзбек бахшилари / Ўзбек халқ ижоди. Тошкент. “Фан”. 1967. 142-бет.